



## O'ZBEKISTON RANGTASVIR SAN'ATIDA RAXIM AXMEDOV IJODINING ILMIY TALQINI

SHaripov Javlon Sharifjon o'g'li

Namangan davlat universiteti Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati

2~kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6300840>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:15-fevral 2022

Ma'qullandi:20-fevral 2022

Chop etildi:25-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Rangtasvir, san'at,  
rassom, polotno, nodir  
yodgorlik, madaniy  
meros, amaliy bezak  
san'ati

### ANNOTATSIYA

*Bugungi kunda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. O'tmishda yashab o'tgan buyuk vatandoshlarimiz, ulug' allamalar siymosini tasviriy san'at asarlarida aks ettish ijod ahli oldiga ham ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Taniqli rassom Rahim Ahmedov-O'zbekiston tasviriy san'atida yorqin iz qoldirgan xalq rassomi. Uning asarlari o'ziga hosligi, kompozitsion yechimi bilan ajralib turadi. Uning ijodini o'rganish har bir yosh tasviriy san'at ixlosmangi uchu muhim manba bo'lib, ulardan ko'plab ijodiy ilhom olish mumkin.*

O'zbekistonda san'at va madaniyatni rivojlanishi o'zini qadimiy tarixiga ega. Bir necha asr davomida har xil bosqichdagi san'at madaniy merosimizni boyitdi. Bizgacha etib kelib, hozirda Parijda milliy kutubxonada saqlanayotgan, XIV asrda Rashid-ad-Din «Maqolalar to'plami»ga ishlangan miniatyura (mo'jaz san'at) portretlari O'rta Osiyoda eng qadimgi tasviriy san'at asarlari hisoblanadi.

X X asr O'zbek tasviriy san'ati, ayniqsa, rangtasvir san'atining shakllanishida Yevropaning ilg'or tasviriy san'ati an'analari, rus va boshqa xalqlar rassomlarining ta'siri katta bo'lganligi ma'lum. Yevropa davlatlarida ancha ilg'orlab ketgan uch o'lchamlilik

qonuniyatlari asosida rivojlangan tasviriy san'at aynan o'sha davrlarda bizning o'lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san'atga ixlosmand vakillari ko'proq xalq amaliy bezak san'ati bilan mashg'ul bo'lganlar.

Ana shu ijodkor rassomlar ichida Rahim Ahmedov o'z uslubi, portret va maishiy janr sohasidagi yaratgan asarlari bilan alohida ajralib turar edi. Bu musavvir O'zbek rangtasvir san'ati va uning rivojlanishida katta xizmatlar qilganligini e'tirof etgan holda, portret san'atida o'ziga hos bir uslub va yo'nalishlarni boshlab berdi desak also mubalag'a bo'lmaydi.



Rangtasvir- rang san`ati. Rangtasvir-xaqiqiy hayotni aks ettirib, tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta`sir o`tkazuvchi tasviriy san`at turlaridan biridir.

Biror bir satx yuzasiga, bo`yoqlar (moybo`yoq , tempera, akvarel, guash va boshqalar) bilan bajarilgan san`at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi obrazlar juda yorqin va tomashabop. Rassomlar asarlarini rangtasvir va plastik vositalar bilan yaratadilar. Ular qalamtasvir va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanganlari bilan, rangtasvirdagi eng asosiy ta`sirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi.

Rangtasvirdagi tasvirlar tasviriy satxda uzluksiz bo`yoq qatlamini hosil qiluvchi bo`yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoqi akvarel rangtasvirida qog`ozda bo`yoq tegmagan joylar qolsa ham, tasvirning uzluksizligiga ta`sir qilmaydi, chunki bo`yoqlar bir-biriga singishib va aralashib ketishadi.

Rangning tasviriy va ta`sirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo`lgan erkinlik va to`liq kuch bilan foydalaniladi. Rang orqali kompozitsiyadagi asosiy fikrni ajratib ko`rsatish, muhim detallarini bo`r ttirish, masofani chuqurligini berish yoki tasvirning yassiligini berish mumkin.

Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko`riladi. Rangtasvir inson hissiyotlari va xarakterining murakkab dunyosini aks ettirishi bilan birga tabiatning nozik o`zgarishlari, fantastik obrazlar va falsafiy fikrlarni berish xususiyatiga ega. Bo`larning hammasi rangtasvir janrlari orqali beriladi.

O`zbekiston xalq rassomi, akademik Rahim Ahmedov P. Benkov nomidagi badiiy o`quv yurtini va Leningraddagi I. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'-morlik

institutini tamomlagan. R. Ahmedov, asosan, portret janrida ijod qiladi. Rassom yaratgan portretlarda zamondoshlarimiz — talaba, artist, rassom, cho`pon, paxtakorlar — mehnatsevar oddiy kishilarning tipik obrazini ko`ramiz. R. Ahmedovning ilk asarlari bo`lmish «Cho`pon yigit», «Xalq sozandasi», «Surxondaryolik qiz» kabi suratlari uni mohir surat-kash va kolorit ustasi bo`lib yetish-ganini ko`rsatadi. Rassom o`z asarlarida qahramonlarning ma'naviy qiyoiyasini, ruhini, his-tuyg'ularini ta`sirli qilib ifodalagan. Bular «Ona o'ylari», «Bahor» va boshqalardir. R. Ahmedov badiiy jihatdan mukammal janrli suratlar ham yaratgan. «Birinchi maosh», «Tushki dam olish», «Onalik — tong», «Qo`shiq» kabi polotnolari nihoyatda jonli, hayotiy va haqqoniy chiqqan.

R. Ahmedov yaratgan ayollar obrazlari, ayniqsa, jozibali va maftunkordir. Rassomning bumavzudagi suratlari nazm ruhi bilan sug`orilgan, nozik his-tuyg'ularga boy. «Onalik — tong» (1963) suratida rassom zamonaviy o'zbek ayolining tipik obrazini gavdalantirdi. Azaldan san'atkorlarni maftun etib kelgan mavzuni R. Ahmedov sodda va bir vaqtda tantanali ifodalagan. Suratning kompozitsiyasi oddiy, koloriti jozibali va nafis. Suratning umumiy nozik pistoqi-

yashil rangi, tog' cho`qqilari va adirlarning yashil-tob binafsha ranglari hamda daraxtlarning ko`kish tustlari bilan uyg'unlashib ketgan. O'zbek ayollariga xos holatda o'tirgan onaning egnidagi sariq libosi uning bug'doyrang badaniga uyg'unlashtirib tasvirlangan. Hamza mukofoti laureati, Toshkent teatr-rassomlik institutining akademigi R. Ahmedov respublika tasviriy san'atining atoqli namoyandalaridan biridir. Uning asarlari xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilingan, mamlakatimizning san`at muzeylari va galereyalarida saqlanmoqda.



Hech bir sahna asarini bezaklarsiz, dekoratsiyasiz tasvvur qilib bo'lmaydi. Ular spektakldagi voqealarning tabiiy, ishonarli va hayotiy chiqishiga yordam beradi. Bunda teatr rassomlarining xizmati katta. Respublikamizda ham bir qancha mahoratli mo'yqalam ustalari shu borada mehnat qilmoqdalar. Ular yaratgan sahna bezaklari asosida tomoshabinlarga tuhfa etilgan o'nlab spektakllar o'zbek madaniyatiga sezilarli hissa bo'lib qo'shilmogda.

Musavvirning «Ona o'ylari», «Tong», «Sora Axmedova» portreti «Lola» portreti «Oqtoshda bahor», «Surxondaryolik ayol», asarlarida jozibali ranglar vositasida o'zbekxalqining o'tmishi, ichki dunyosi, xis – tuygu, orzulari o'z ifodasini topgan.

Rahim Axmedov dastlab portretsoxasida juda berilib ijod qildi. Zamondoshlarni betakror obrazini, mazmun g'oyalarni ifodalashda o'ziga xos badiiy til topdi. Portret yaratganda, nafakat uni tashki kiyofasiga, ranglarni uygunligiga, balki uni chexrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intilardi. Shuning uchun mehnatsevar xalqning milliy xususiyatlarini, o'zida mujassamlashtirgan ayollar, kariyalar, uspirin – yoshlarni obrazini yaratishga qaratilgan edi.«Cho'pon portreti» da tabiat bilan kurashib ogir mexnatni yoshlikdayok yelkasiga olgan 40- yillar avlodini takdirini tasvirlagan. Chupon yigit kiyofasida sinchiklab qarayotgan nigoxi gavda kompozitsiyasiga bog'lanib ketgan, tayokka suyalgan, kabargan kullari va suyalgan gavdasi jazirama oftobda kuygan dala

utlari, xaroratda qizigan tabiat manzarasi fonida – issiq ranglarda o'z yechimini topgan. Portet kompozitsiyasini asosiy mavzuni bu inson obrazidir.

Boshiga kattalarga taqlid qilib uralgan qizil rumolcha, ogir mexnatni anglagan, pushti kuylakdagi uspirin bola tasvirlangan. Bu ajib asar xozirda uzbekiston Davlat san'at muzeyida avaylab saqlanmogda.San'atkor o'z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalab, tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati vafikrlarini tasvirlaydi.

#### Xulosa

Jahon va Vatanimiz san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Bugungi kunda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmogda. O'tmishda yashab o'tgan buyuk vatandoshlarimiz, ulug' allamalar siymosini tasviriy san'at asarlarida aks ettish ijod ahli oldiga ham ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 I.Karimov. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 1998 y.
- 2 Abdullayev N.U. "San'at tarixi" . 1-tom. Toshkent. O'qituvchi, 1986 yil.
- 3 Abdullayev N.U. "San'at tarixi" . 2-tom. Toshkent. San'at, 2001 yil.
- 4 Oydinov N. "O'zbekiston tasviriy san'atidan lavhalar" Toshkent, O'qituvchi. 1997 yil.
- 5 Rahim Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. Toshkent, 2009 yil.



6 O'zbekiston Badiiy Akademiyatsi nashri. "O'zbekiston san'ati" majmuasi. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririya. T. 2001

7 Jadova L. A. Sovremennaya jivopis O'zbekistana. — Tashkent: Goslitizdat. 1962

8 Egamberdisv A. Japrovaya Jivopis Uzbekistana. -Tashkent: Izdatelstvo literaturi iskusstva imeni Gafura Gulyama, 1989